XALQ DEPUTATLARI BOYOVUT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-3-018-9-123-K/24 Boyovut tumani

Tumandagi geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli, 2020-yil 20-yanvardagi “Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 34-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasi tomonidan, tumandagi 31 ta geografik obyektni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha takliflardan 31 ta geografik obyektga taklif etilgan nom O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topilib, belgilangan ekspertiza xulosasi tasdiqlangan.

Tumanda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar to‘g‘risidagi tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi I.Mirzaqulovning axborotini atroflicha muhokama qilib, mahalliy davlat to‘g‘risidagi Qonunning 6- va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Boyovut tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2024-yil 15-oktyabrdagi 2/2-576-sonli Ekspertiza xulosasi hamda tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi I.Mirzaqulovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Geografik obyektlarga beriladigan nomlar va ularni qayta nomlash takliflari 1-ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Tuman hokimining Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (I.Mirzaqulov) mazkur geografik obyektlarni Davlat reyestriga kiritish choralarini ko‘rsin.

4. Davlat kadastrlar palatasi Boyovut tumani filiali (S.Sherboyev), tuman statistika bo‘limi (M.Ishonqulov)ga:

tumanda yangi nomlangan va nomi o‘zgargan geografik obyektlarni tuman xaritasiga joylashtirish, shuningdek, tegishlicha tuman statistika ma′lumotlariga o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (F.Po‘latov)ga tuman hokimining ma′naviy-ma′rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to′g′risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta′minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi I.Mirzaqulov bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi hamda “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunlari talablari asosida ushbu olib borilgan ishlarni tuman mahalliy ommaviy axborot vositasi hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi K.Karimova zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e′tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi O.Isanov

Xalq deputatlari Boyovut tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-018-9-123-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Boyovut tumani hududida nomlari takror bo‘lgan ko‘chalar va nomsiz ko’chalarni qayta nomlash uchun berilgan takliflar

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan taklif etilayotgan nom	Hududiy komissiya tomonidan berilgan xaritaning ekspert komissiuasi tomonidan tahlili	Ekspert komissiyasining umumiy xulosasi
1.	Berk ko'cha	Istiqlol mahallasi	Nomsiz	Nishona	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2.	Tor ko'cha	Istiqlol mahallasi	Nomsiz	Sabotli-2	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3.	Tor ko'cha	Istiqlol mahallasi	Nomsiz	Ravnaq	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4.	Tor ko'cha	Istiqlol mahallasi	Nomsiz	Hamkor	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5.	Berk ko'cha	Istiqlol mahallasi	Nomsiz	Omilkor-2	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
6.	Tor ko'cha	Istiqlol mahallasi	Nomsiz	Pog‘ona	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
7.	Berk ko'cha	Istiqlol mahallasi	Nomsiz	Ramz	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
8.	Berk ko'cha	Markaz mahallasi	Nomsiz	Ravnaq-1	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
9.	Berk ko'cha	Markaz mahallasi	Nomsiz	Ravnaq-2	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
10.	Berk ko'cha	Markaz mahallasi	Nomsiz	Matonat-1	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
11.	Berk ko'cha	Markaz mahallasi	Nomsiz	Matonat-2	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
12.	Tor ko'cha	Markaz mahallasi	Nomsiz	Sheroz	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
13.	Berk ko'cha	Markaz mahallasi	Nomsiz	Nasaf-1	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
14.	Berk ko'cha	Markaz	Nomsiz	Nasaf-2	Xaritada geografik obyektning turi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq

		mahallasi			to‘g‘ri ko‘rsatilgan	
15.	Tor ko'cha	Markaz mahallasi	Nomsiz	Xondamir	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
16.	Berk ko'cha	Markaz mahallasi	Nomsiz	Oqibat	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
17.	Ko'cha	Markaz mahallasi	Nomsiz	Xiyobon	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
18.	Berk ko'cha	Ozodlik mahallasi	Nomsiz	Gavhar-1	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
19.	Berk ko'cha	Ozodlik mahallasi	Nomsiz	Gavhar-2	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
20.	Berk ko'cha	Muqimiy mahallasi	Nomsiz	Imoratchi-1	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
21.	Berk ko'cha	Muqimiy mahallasi	Nomsiz	Imoratchi-2	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
22.	Tor ko'cha	Muqimiy mahallasi	Nomsiz	Islohat	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
23.	Berk ko'cha	Muqimiy mahallasi	Nomsiz	Na'muna	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
24.	Berk ko'cha	Muqimiy mahallasi	Nomsiz	Buyuk kelajak-1	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
25.	Berk ko'cha	Muqimiy mahallasi	Nomsiz	Buyuk kelajak-2	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
26.	Berk ko'cha	Muqimiy mahallasi	Nomsiz	Buyuk kelajak-3	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
27.	Berk ko'cha	Muqimiy mahallasi	Nomsiz	Buyuk kelajak-4	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
28.	Berk ko'cha	Muqimiy mahallasi	Nomsiz	Mohitobon	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
29.	Berk ko'cha	Muqimiy mahallasi	Nomsiz	Qanoat-1	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
30.	Berk ko'cha	Muqimiy mahallasi	Nomsiz	Qanoat-2	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
31.	Tor ko'cha	Muqimiy mahallasi	Nomsiz	Yangi asr	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq